

## YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2019-yilning yanvar-dekabr oylarida Andijon viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda YaHM) hajmi joriy narxlarda 32 897,2 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2018-yilning mos davriga nisbatan 6,5 % ga o'sdi.

2019-yil yanvar-dekabr yakunlari bo'yicha aholi jon boshiga YaHM 10621,6 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 4,5 % ga oshdi.


O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YaIMni shakllantirishda Andijon viloyatining qo'shgan hissasi 6,4 % ni tashkil etdi.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHMni ishlab chiqarish

	Mlrd. so'm		2018-yil yanvar-dekabrga nisbatan, % da
	2018-yil yanvar-dekabr	2019-yil yanvar-dekabr	
<b>I. Yalpi hududiy mahsulot, jami</b>	<b>26 503,0</b>	<b>32 897,2</b>	<b>106,5</b>
shu jumladan:			
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	25 868,5	31 740,7	106,4
Mahsulotlarga sof soliqlar	634,5	1 156,5	109,4
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>25 868,5</b>	<b>31 740,7</b>	<b>106,4</b>
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	11 830,4	14 304,8	103,4
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	7 208,7	8 908,6	113,4
sanoat	5 936,9	7 177,6	114,7
qurilish	1 271,8	1 731,0	107,1
Xizmatlar	6 829,4	8 527,3	104,4
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 676,6	1 945,9	103,1
tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlari	1 490,3	1 650,5	104,3
boshqa xizmatlar	3 662,5	4 930,9	105,0

Hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o'sish sur'atlari YaHM o'sishida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Jumladan, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi tarmog'ining o'sish sur'ati -103,4 % (YaHM tarkibidagi ulushi – 45,1 %), sanoat – 114,7 % (22,6 %), qurilish – 107,1 % (5,5 %), savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 103,1 % (6,1%), tashish va saqlash, axborot va aloqa – 104,3 % (5,2%) va xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar – 105,0 % (15,5 %) ni tashkil etdi.

### 2019-yilning yanvar - dekabrda YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'sish sur'atlari






Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qoʻshilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 96,5 % ni, mahsulotlarga sof soliqlar esa 3,5 % ni tashkil etdi.


Qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligi YaHMning tarmoqlar boʻyicha tarkibidagi ulushi 0,6 % punktga kamaydi va hisobot yilida 45,1 % ni tashkil etdi. Sanoat (qurilishni qoʻshgan holda) YaHMning tarmoqlar boʻyicha tarkibidagi ulushi hisobot yilida 28,1 % ni tashkil etdi va 2018-yilning yanvar-dekabr (27,9 %) bilan taqqoslanganda 0,2 % punktga oshdi. Xizmatlar sohasining YaHM tarkibidagi ulushi 26,8 % ni tashkil etdi va 2018-yilning mos davri (26,4 %) bilan taqqoslanganda 0,4 % punktga oʻsdi.

### YALPI hududiy mahsulotning tarmoqlar boʻyicha tarkibi (jamiga nisbatan foizda)



Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning YaHM tarkibidagi ulushi – 6,1 % ni (2018-yil yanvar-dekabr 6,5 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa – 5,2 % ni (5,8 %), xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar – 15,5 % ni (14,1 %) tashkil etdi.

### Xizmatlar sohasining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi (jamiga nisbatan foizda)



- savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
- tashish va saqlash, axborot va aloqa
- boshqa xizmat tarmoqlari

**Statistika faoliyatini tashkil etish  
va yig'ma axborot-tahliliy ishlar bo'limi  
Nashr uchun mas'ul: X.Xamrakulov  
Tel: (0-371) 230-82-48  
(0-374) 228-29-77**